

O'ZBEKISTONDA TARAQQIYOTNING "O'ZBEK MODELI" VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Olimova Zulfiyaxon Ibrohimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti

Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

zulfiyaolimova98@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13283307>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining mustaqilikka erishgandan so'ng taraqqiyotning "O'zbek modeli" asosida rivojlanishi haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Muallif "O'zbek modeli" ning tamoyillari va uning rivojlanish bosqichlariga alohida to'xtalib o'tadi, hamda xolisona yondashadi.

Kalit so'zlar: o'zbek modeli, taraqqiyot, iqtisodiyot, iqtisodiy islohotlar, mustaqillik, nokapitalistik munosabatlar, xususiy sector, bank-kredit, uy-joy fondi, infratuzilma, modernizatsiya, industrial mamlakatlar, falaj terapiyasi, yovvoyi kapitalizm.

"UZBEK MODEL" OF DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND ITS SPECIFIC ASPECTS

Abstract. This article presents general information about the development of the Republic of Uzbekistan after gaining independence based on the "Uzbek model". The author focuses on the principles of the "Uzbek model" and the stages of its development, and takes an objective approach.

Key words: Uzbek model, development, economy, economic reforms, independence, non-capitalist relations, private sector, bank credit, housing fund, infrastructure, modernization, industrial countries, paralysis therapy, wild capitalism.

«УЗБЕКСКАЯ МОДЕЛЬ» РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. В данной статье представлены общие сведения о развитии Республики Узбекистан после обретения независимости на основе «узбекской модели». Автор акцентирует внимание на принципах «узбекской модели» и этапах ее развития, придерживается объективного подхода.

Ключевые слова: узбекская модель, развитие, экономика, экономические реформы, независимость, некапиталистические отношения, частный сектор, банковский кредит, жилищный фонд, инфраструктура, модернизация, индустриальные страны, паралитическая терапия, дикий капитализм.

KIRISH

Jahondagi barcha mamlakatlar rivojlanish uchun o'zining alohida taraqqiyot yo'lini belgilab olish zarur. Vatanimiz O'zbekiston ham mustaqilikka erishgandan so'ng ana shunday murakkab va ziddiyatli bir davrda o'zi uchun o'ziga xos taraqqiyot yo'lini belgilab olish, yangi jamiyat barpo qilish uchun o'z andozasini ishlab chiqishi zaruratga aylandi. O'z navbatida bunday mas'uliyatli vazifani uddalash O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiyvaziyat, odamlar orasida tarkib topgan munosabatlар, ularning dunyoqarashlari, diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulq-atvori meyorlari ham aynan shuni taqozo etardi.

O'zbekiston Respublikasining Birimchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va a'aliyatga atbiq etilgan "O'zbek modeli" ham o'ziga xos bo'lib, unda bozor iqtisodiyotining ma'lum bir turi yok muayyan bir davlat yo'li shundayligicha ko'chirib olingan emas. Uni tanlashda davlatimizning iqtisodiy-ijtimoiy sharoiti va salohiyatidan, xalqimizning boy tarixi, milliy urf-odatlari, an'analari hamda diniy e'tiqodidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Bunda jahoning ko'plab rivojlangan davlatlar tajribasi ham mukammal o'rzanildi va inobatga olindi. Dunyo amaliyotida o'tish davri uchu muayyan belgilangan alohida mukammal modelning o'zi yo'q deb bemalol aytishimiz mumkin. Negaki, bir davlatning taraqqiyot yo'li boshqalarни bilan mutlaqo to'g'ri kelmasligi mumkin. Jahondagi har bir davlat o'ziga xos iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, geopolitik va tabiiy sharoitga ega hisoblanadi. Shu va boshqa sabablarni inobatga olgan holda har bir mamlakat o'zining iqtisodiy rivojlanish modeliga ega bo'lishi kerak.

Avvalo "O'zbek modeli" atamasi O'zbekistonning Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanayotgan davlatlardan biriga aylanishi bilan bog'liq tarzda paydo bo'ldi. Ushbu atama 1993-yildan qo'llanila boshlandi, chunki bu davrdan boshlab O'zbekiston Respublikasida olb borilayotgan keng qamrovli islohotlar o'zida iqtisodiy o'sish bilan uuyg'un tarzda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mujassamlashtirgan edi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning nazariy asoslari, strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, muammolari va ularni hal etish yo'llari dastlab O'zbekiston Respublikasining Birimchi Prezidenti Islom Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li". "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat", "O'zbekiston bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'li", "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" asarlarida o'z ifodasini topdi. Keyinchalik ushbu konsepsiya "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda", "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari", "Bizning

bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir” kabi asar hamda ma’ruzalarida takomillashtirib kelinmoqda.¹

MATERIALLAR VA USULLAR

“O’zbek modeli”ning asosiy tamoyillari, uni amalga oshirish yo’llari va bosqichlari O’zbekiston Respublikasining Birimchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi, hamda ilmiy tomonlama ham asoslangan mashhur besh tamoyilda o’z aksini topdi. Ushbu tamoyillar umumlashgan holda 1993-yilda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “O’zbekiston: bozor munosabatlariiga o’tishning o’ziga xos yo’li” asarida e’lon qilindi va batafsil tushuntirildi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat.

Birinchi tamoyil – iqtisodiyotning siyosatga nisbatan ustuvorligini ta’minalash. Bu qoida iqtisodiy faolyat ijrimoy hayotning barcha sohalari uchun poydevor vazifasini o’tashini ya’ni O’zbekistonda iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotning asosi bo’lishini bildiradi. Ushbu tamoyilda iqtisodiyotning o’ziga xos obyektiv qonunlari borligi, ularni e’tiborga olmagan holda ish yuritish mumkin emasligi belgilab berilgan. Iqtisodiy qonunlarning obyektivligini tan olib, xo’jalik faoliyatini ular talabiga mos holda yuritish o’tish davri uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi belgilab qo’yilgan. Milliy iqtisodiyot mafkuraviy tazyiqlardan holi bo’lgan holda o’ziga xos ichki qonunlarga ko’ra rivojlanishi kerak. Lekin, bu degani iqtisodiyotni siyosat ta’siridan holi deb o’ylashimizni bildirmaydi. O’zbekistondagi taraqqiyot zaruratidan kelib chiqqan siyosat iqtisodiyotga faol ta’sir qilishi kerak bo’ladi.

Ikkinci tamoyil – davlat bosh islohotchi bo’lishi lozim. Davlat islohotlarning ustuvor yo’nalishlarini belgilab berishi, ularni amalga oshirish yo’lini ishlab chiqishi va unga rioya etishi, eskilik tarafdorlarining fikrlariga qarshilik qilishi muhim ahamiyatga ega. Mazkur qoida madaniy bozor iqtisodiyoti konsepsiyasiga tayanadi. Mustaqil O’zbekiston Respublikasi mustabid-rejali, ma’muriy buyruqbozlik, eskicha boshqaruv tizimi asosda boshqarilgan iqtisodiyot yo’lidan erkin demokratik iqtisodiyot tomon borar ekan, G’arb mamlakatlari bir becha asrlar davomida boshidan kechirgan tarixiy jarayonni O’zbekiton ham boshidan kechirishi shart emas. G’arb mamlakatlarida “beayov va tartibsiz” bozor iqtisodiyoti “yovvoyi kapitalizm” atamasi bilan atalgan va uzoq davr amalda bo’lgan. Ikkinci tamoyil davlar iqtisodiyotiga minimal darajada aralashib, uni o’z holiga qo’yishi zarur, degan g’oyalarni rad etadi, hamda davlatning bu borada faolligini anglatadi.

Uchinchi tamoyil – qonunlarning va ularga rioya qlishining untuvorligini ta’minalash. Bu tamoyilning shundan iboratki, demokratik ruhda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarini hech qanday inrisnosi barcha birdek qabul qilishi va ularga so’zsiz

¹ H.Jurayev, B.Iminov, I.Begimqulova, Sh.Oxunjonova. “O’zbekistonning eng tarixi” darslik. Toshkent. 2023.

amal qilishi kerak. tamoyilga binoan, qonunlar siyosiy hokimiyatni ta'minlovchi asosiy kuch, ularga jamiyat a'zolarini yuridik qonun va qarorlarga bo'ysundiruvchi mexanizm sifatida qaraladi.

Modelning uchinchi tamoyilining talablari yangicha ko'rinishdagi qonunchilikni yaratishni taqozo etadi.

- ✓ Birinchidan, O'zbekistonning milliy mustaqilligini,
- ✓ Ikkinchidan, bozor islohotlarini amalga oshirish uchun huquqiy baza yaratadi.

To'rtinchi tamoyil – faol ijtimoiy siyosat o'tkazish. O'zbekistonda bozor munosabatlarni joriy etish bilan bir vaqtda, aholi sonining ortishini ham hisobga olgan holda, ularni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan yetarli chora-tadbirlar ko'rishi kerak bo'ladi.

Davlatimizning iqtisodiy taraqqiyoti ijtimoiy sohaning moddiy bazasini mustahkamlashi, ijtimouy sohaning har tomonlama rivojlanishi esa inson omilini faollashtirib, iqtisodiyotga kuchli ta'sir o'tkazishi lozim. Har ikkala sohaning ddaktik aloqadorligi ishlab chiqarishning moddiy va insoniy omillari yaxlitligidan kelib chiqadi.

Beshinchi tamoyil – bozor iqtisodiyotiga asta-sekin, boshqichma-bosqich o'tish. Mazkur tzmayil "O'zbek modeli" ning tamal toshi, hamda asosiy mezonidir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish – bu avvaldan mavjud bo'lgan tizimga tuzatish va qo'shimchalar kiritish emas, balki yangi, avval mavjud bo'lмаган, o'ziga xos bozor iqtisodiyotini yaratishni bildiradi. Bu yo'l revolyutsion emas, aksincha evolyutsion yo'ldir. Bu o'tish davri bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oluvchi, uzoq, mashaqqatli davr ekanligini bildiradi va odamlar uchun butunlay yangi ko'rinishdagi hayot falsafasi hisoblanadi. Mazkur tamoyilga binoan islohotlar tadrijiy yo'l bilan, ular mustabid rejali iqtisoddan sakin-asta bozor tizimiga o'tishini, ammo bu talofatsiz, larzalarsiz bo'lismeni bildiradi. Shoshma – shosharlik bilan bozor qoidalarini hayotga joriy etib bo'lmaydi. Buning uchun tayyorgarlik va muayyan vaqt talab qilinadi. Bozor munosabatlari shakllanib ulgurmagan sharoitda mavjud aloqalarni buzib yuborish iqtisodni izdan chiqarishi, aholi turmushini keskin pasaytirib, sotsial to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin.²

NATIJALAR

Tahlil natijalariga ko'ra hozirgi kungacha o'zbek modeli o'zining rivojlanishida bir nechta bosqichlarni bosib o'tgan. Bular quyidagilar hisoblanadi:

Birinchi bosqich – 1989-1991-yillarni o'z chiga oladi, ya'ni bu davrda SSSR tarkibiga kirgan har bir respublika o'zining ichki imkoniyati va umumittifoq taqsimotidan kelib chiqqan holda mintaqaviy xo'jalik hisobiga o'tmoqda edi. Bu boradagi eng asosiy muammo majruban joriy

² I.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent. 1996.

etilga sotsialistik munosabatlar va davlatimizning real imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarda o'z aksini topdi.

Ikkinchi bosqich – O'zbekiston mustaqilligining ilk davri, ya'ni 1991-1993-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davr davlatimizning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini izlashning eng murakkab va mashaqqatli pallasi hisoblanadi. O'zi uchun yangicha taraqqiyot yo'lini toppish O'zbekiston uchun murakkabligi yana shunda ediki, ko'plab Yevropa davlatlaridan farqli o'laroq, xalqimiz o'ziga xos eksperiment obyektiga aylangan edi. Nokapitalistik munosabatlar hukmronlik qilgan davrda respublika iqtisodiyotining rivojalanishida salbiy oqibatlarga olib keldi. Chunki buning natijasida hali to'laligicha rivojlanmagan, majruh holatdagi ishlab chiqarish munosabatlari shakllandi.

Uchinchi bosqich – 1993-1995-yillarni o'z ichiga oladi. Mazkur davr o'zbek modeli amalga oshirilishining dastlabki davri hisoblanadi. Bu bosqichda bozor infratuzilmasi vujudga keldi, xusussan uning normativ-huquqiybazasi, xususiy sector, bank-kredit mexanizmiuchun xizmat ko'rsatish sohasi, soliq siyosati kabi masalalar shakllandi jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, uy-joy fondini, ijtimoiy soha tarmoqlaridagi korxonalarini ya'ni, umumiyligi ovqatlanish shahobchalarini savdo, pulli xizmat ko'rsatish sohalarini xususiylashtirish ishlari amalga oshirila boshlandi. Eng muhim jihatni shundaki, O'zbekiston xalqaro iqtisodiy munosabatlarning to'laqonli subyektiga aylandi.

To'rtinchi bosqich – 1995-1999-yillar hisoblanadi. Bu bosqichda aholi tanlagan yo'lining to'g'riligini, amalga oshirilayotgan islohotlar real yo'nalish va shaklga ega ekanligini tushunib yetdi. Chunki, o'zbek modeli islohot o'tkazish usullari handa dasturlarni amalga oshirish mexanizmlari talab darajasida ega ekanligini ko'rsatdi. Shuni alohida aytib o'tish kerakki, ko'plab chet davlatlarning ekspertlari O'zbekiston tanlagan taraqqiyot yo'lini Janubi-Sharqiy Osiyoning rivojlangan mamlakatlarida olib borilayotgan islohot va yangiliklar yo'nalishiga o'xshata boshladilar. Mamlakatimizda qator strategic sohalarning, xususan don va energetika mustaqilligi ta'minlandi.

Beshinchi bosqich – 1999-yildan to 2010-yilgacha davo etdi. Bu uzoq davom etga bosqichda import o'rmini bosuvchi va ommaviy eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy tizimni to'la hajmda shakllantirish, nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikning faollashuvi bu bosqichda amalga oshirilgan islohotlarning asosiy belgisi bo'ldi. Avvalgi bo'lib o'tgan bosqichlar doirasida mamlakat iqtisodiyotini tubdan tarkibiy juhatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda mutlaqo yangi, lokomativ ro'lini bajaradigan tarmoqlarning barpo etilishi, ishlab chiqarish sohasini modernizatsiya qiish, texnik va texnologik jihatdan yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish va uni tubdan rivojlantirish

borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur fikr-mulohaza qlingan va uzoq istiqbolga mo'jallangan ishlar o'z natijasini berdi

Oltinchi bosqich – 2010-yildan boshlandi va uning tub mohiyati va ustuvor yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Brinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 27-yanvarda o'ykazilgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir" ma'rzasida o'z aksini topdi. Bu yondashuv rivojlanishning o'zbek modelini nazariy va amaliy jihatdan yanada boytib, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va liberalallashtirish bo'yich amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, jonajon vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng o'zi uchun yangicha ruhdagi taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishi va shu asosda rivojlanishi zarur edi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ana shunday ishni amalga oshira oldi desak mubolg'a bo'lmaydi. Taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishda xalqimizning ijtimoiy va diniy jihatdan barcha imkoniyatlari hisobga olindi va shu asosda rivojlantirildi. Jahondagi hech br mamlakatning rivojlanish bosqichi bir-biriha mutlaqo o'xshamaydi. Shuning uchun ham bizning taraqqiyot yo'limiz o'zgacha usulda ishlab chilqildi va amaliyotga tatbiq etildi. Bu amaga oshirilgan ishlar albatta o'zining kutilgan natijasni berdi.

REFERENCES

1. H.Jurayev, B.Iminov, I.Begimqulova, Sh.Oxunjonova. "O'zbekistonning eng tarixi" darslik. Toshkent. 2023.
2. I.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent. 1996.
3. N.To'xliyev. O'zbek modeli taraqqiyot tamoyillari. Toshkent.
4. T.Fayzullayev, A.Sarimsoqov. Mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Namangan. 2013.
5. R.Murtazayeva. O'zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik – Toshkent.
6. www.gov.uz sayti.
7. www.ziyo.net.uz sayti.